

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'RGAТИSHDA INNOVATSION USULLAR

Akbarova Shahzodaxon Sobirovna

Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani 22-maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8001204>

**Annotatsiya.** Ta'lism sohasida islohotlar barcha sohaga bo'lgani singari jadal suratlarda va yangiliklar bilan kirib kelmoqda. Bugun ingliz tili o'qitishni an'anaviy usullaridan voz kechib interaktiv yangicha metodlar asosida dars tashkillash o'qituvchining muhim vazifasidir. Ingliz tili fanini boshlangich sinflarda bilim darajalarini o'stirishda kreativ fikrlah asosida dars tashkil etish dolzarb masaladir

**Kalit so'zlar:** ta'lism, ingliz tili, dars, o'g'zaki, metod, mustahkamlash, jismoniy harakatlar, ro'lli ijro.

## INNOVATIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRIMARY CLASS STUDENTS

**Abstract.** Reforms in the field of education, like in all areas, are coming in pictures and news. Today, it is an important task of the teacher to abandon the traditional methods of teaching English and organize a lesson based on new interactive methods. It is an urgent issue to organize lessons based on creative ideas in increasing the level of knowledge of English language in elementary grades.

**Key words:** education, English language, lesson, oral, method, reinforcement, physical actions, role play.

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** Реформы в сфере образования, как и во всех сферах, грядут в картинах и новостях. Сегодня важной задачей учителя является отказ от традиционных методов обучения английскому языку и организация урока на основе новых интерактивных методов. Актуальным вопросом является организация уроков на основе творческих идей по повышению уровня владения английским языком в начальных классах.

**Ключевые слова:** обучение, английский язык, урок, устная речь, метод, подкрепление, двигательные действия, ролевая игра.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodga chet tillarini o'rganishi uchun katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrdagi qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining N:1875 qarori hamda 2013–2014 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Davlat Test Markazi tomonidan xam Chet tillarini o'qitishning maktab yoshidan to Oliy o'quv yurtlarining Magistratura darajasini egallayotgan kadrlarining Chet tilini bilish darajasini belgilaydigan baxolash mezoni xam ishlab chiqildi. Shu jumladan umumiy o'rta maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilidan bilim darajasini baxolash tizimi shu mezoning boshlang'ich qismidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida taqlid qilish xususiyati ularni til o'rganishga bo'lган tabiiy moyilligini kuchli ekanligini ko'rsatib beradi. Shuni e'tiborga olish kerakki, 7-9 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga Xorijiy tillarni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga xorijiy tillardan biri Ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- qo'shiq va she'rлar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lган, ma'noga ega bo'lмаган harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'лиq bo'lган o'yinlar;

- multfilmlar; bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur.

- mavzuga oid muhit omillar; o'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarining so'з boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

- topishmoqlar; bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytсада, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.

- amaliy mashg'ulotlar (mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, gullarni hidlab ko'rish); Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil (red) yoki yashil (green), ta'mi shirin (tasty) yoki yoqimli, mazali (delicious) haqida ma'lumot berishi o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilaridan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchilarining ma'lumotni xotirasida uzoq muddat saqlab qolishini ta'minlaydi.

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali; ba'zida ushbu ko'rgazmalar katta bo'lishi ba'zida esa o'quvchi qoliga ushlab ko'ish darajasidagi hajmda bo'lishi zarur

- ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozib qo'yish orqali. Masalan: eshik (door), kitob (book), stol (table), doska (blackboard), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amaliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

– yangiliklar orqali; bilamizki, bolalar qiziqvchan. Ular bir xillikdan tez zerikishadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdag'i usullardan foydalanib dars o'tish emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tish lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi lozim. Chunonchi, farzandlarimizni kelajakda xalqaro munosabatlarning ilg'or sohalarida yetuk mutaxassis bo'lislari uchun biz ziyolilar bunday ma'suliyatni chuqur his etmog'imiz darkor.

## REFERENCES

1. 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining N:1875 Qarori
2. A. Xoliqov Pedagogik mahorat Toshkent
3. Cameron, Lynne. 2001. *Teaching languages to young learners*. Cambridge: Cambridge University press
4. Deller, Sheelagh and Price, Christine. 2007. *Teaching other subjects through English*. Oxford: Oxford University press
5. internet sayt : ziyonet.uz